

## JAMIYAT TARAQQIYOTIDA INSON, SHAXS PSIXOLOGIYASI IMKONIYATLARI

*G‘ulomova Nodira Fozil qizi  
Buxoro viloyati Jondor tumani 7-umumiy  
o‘rta ta’lim maktabi psixologi*

### ANNOTATSIYA

*Jamiyat taraqqiyotida inson bosh omil, shu jamiyatning rivojlantiruvchisi hisoblanadi. Uning shakllanishi, o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi, tarbiyasi ana shu jamiyatda yuz beradi. Ushbu maqolada insonning shaxs sifatida shakllanishida psixologik omillar va ijtimoiy muhitning ahamiyati, shuningdek, shaxs psixologiyasining jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta’siri ilmiy-nazariy asosda yoritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** jamiyat, taraqqiyot, psixologiya, sistema, individ, shaxs, sifat, topshiriq, omil, hissiyot

### KIRISH

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti har qachongidan ham ko‘proq inson omiliga, uning ruhiy va psixologik imkoniyatlariga bog‘liq bo‘lib bormoqda. Texnologik yutuqlar, ijtimoiy institutlarning takomillashuvi yoki iqtisodiy ko‘rsatkichlar inson omilisiz mustahkam ijtimoiy asosga ega bo‘la olmaydi. Inson – bu nafaqat biologik mavjudot, balki o‘z aqliy, ruhiy va ijtimoiy jihatlari bilan jamiyatda faoliyat yurituvchi murakkab sistemadir. Shuning uchun ham psixologiya fani bugun faqat individual muammolarni emas, balki jamiyat taraqqiyotining omil sifatida inson salohiyatini chuqur tahlil etishga harakat qilmoqda.

Insonning shaxs sifatida shakllanishi, unga ta’sir etuvchi omillar va ularning mexanizmlari haqida psixologiya fani aniq ma’lumotlarga ega. Inson dunyoga odam bo‘lib keladi. Odamning insoniyat vakili sifatida baholanishi bu termin bilan bog‘liq. O‘qituvchilarning topshiriqlarini tashqi ta’sir natijasida bajargan o‘quvchigina o‘quv faoliyatining haqiqiy subyekti bo‘la oladi. Har bir individ takrorlanmas sotsial fazilatlarni mujassamlashtirgandagina u shaxs sifatida shakllanadi.

Psixologiyada shaxs tushunchasi amaliy faoliyat va ijtimoiy munosabatlar jarayonida hosil bo‘ladigan, individga ta’sir ko‘rsatish darajasi va sifatini belgilaydigan sotsial fazilatlar tizimi sifatida qaraladi. Shu boisdan, "shaxs bo‘lmagan individ mavjud bo‘lishi mumkinmi?" degan savol dolzarb hisoblanadi.

Mazkur maqolada jamiyatning rivojlanishida inson va shaxs psixologiyasi qanday rol o‘ynashi, psixologik imkoniyatlar qanday ochilishini aniqlash, shuningdek, shaxsning ichki resurslari va ularni ijtimoiy foydali faoliyatga yo‘naltirishning dolzarb

masalalari tahlil qilinadi. Shu orqali biz inson salohiyatining chuqur psixologik omillarini anglab, uni yanada samarali yo‘naltirish mexanizmlarini ko‘rib chiqishga harakat qilamiz.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Shaxs sifatida kamolotga yetmagan individ mavjud bo‘lishi mumkin. Bunga hayvonlar orasida tarbiyalangan bolalar misol bo‘la oladi. Ammo individning shaxsga aylanishi uchun qanday omillar kerak? Shaxs haqida gap ketganda rus psixolog S. Rubinshteynning fikrlari alohida ahamiyatga ega. Unga ko‘ra, odam o‘zidagi takrorlanmas xususiyatlari bilan individualdir. Uning atrofdagilarga, borliqqa ongli munosabati, faoliyati shaxs ekanligining dalilidir.

Shaxsning shakllanishi murakkab, uzoq muddatli va tarixiy jarayondir. Shaxs ijtimoiy taraqqiyot mahsuli bo‘lib, uni falsafa, sotsiologiya, pedagogika, psixologiya, etika, tibbiyat va boshqa fanlar o‘rganadi. Shaxsni shakllantirishda muhit, kishilar va jamiyatning roli juda kattadir.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Shaxsning strukturasini va rivojlanish qonuniyatlarini bilmasdan turib, inson shaxsini loyihalash va uning rivoji uchun samarali sharoitlarni aniqlab bo‘lmaydi. Inson shaxsi o‘zini o‘rab turgan sotsial olam bilan faol munosabatda bo‘lishi orqali shakllanadi. Shaxsning tarkib topishida biologik va ijtimoiy omillar o‘zaro aloqada bo‘lib, tashqi ta’sirotlarni ichki psixik imkoniyatlarga aylantiradi.

Anatomik-fiziologik imkoniyatlar psixik faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi va shaxs faoliyatida ifodalanadi. Bu jarayon psixik xususiyatlar va neyrodinamik, sensor-perseptiv tizimlar orqali shakllanadi. Odam tug‘ilganda nasliy yo‘l bilan faqat imkoniyatlar bilan dunyoga keladi. Ular faqat ta’lim, tarbiya va muloqot orqali rivojlanadi. Shu sababli bola ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirish orqali o‘z imkoniyatlarini tarkib toptiradi. Bu jarayon ko‘p vaqt, ba’zida hayotining to‘rtadan bir qismini talab qiladi.

### **XULOSA**

Odamni shaxs sifatida shakllantiruvchi asosiy omillar uning jamiyatdagi aloqalari, faoliyati va muloqotidir. Odam faqat boshqa kishilar bilan bo‘lgan munosabatda shaxsga aylanadi. Shaxs bu - faoliyat bilan shug‘ullanadigan, til orqali muloqot qila oladigan, ongi rivojlangan insondir. Inson har xil guruh va vaziyatlarda turli rollarni bajaradi.

Odam turli guruhlarga kirar ekan, har xil vazifalarni bir - biriga o‘xshamagan rollarni bajaradi. Ba’zi bolalar oilada erkatoj, injiq bo‘lsa, mакtabda tengdoshlari o‘rtasida kamtarin, odobli, xushchaqchaq bo‘ladi. Ishda juda jiddiy yuradigan odam biror sayohatga borganda hazilkash, qiziqchi bo‘lib yurishi mumkin. Ko‘pincha kishi turli vaziyatlarda o‘xshash sifatlarni namoyon qiladi. Odamning psixik holatlarini o‘zgarishi tashqi muhitga va ijtimoiy tarbiyaga bog‘liqdir. Shaxsning nisbatan barqaror

va nisbatan o‘zgaruvchan xususiyatlari shaxs xislatlarining bir butunligi va o‘zaro bog‘liqligidan iborat bo‘lgan murakkab birlikni, ya‘ni dinamik tuzilishni hosil qiladi.

Shaxsning psixik holati tashqi muhit va ijtimoiy tarbiya bilan bog‘liq. Shaxsning nisbatan barqaror va o‘zgaruvchan xususiyatlari bir butunlikda namoyon bo‘lib, dinamik tuzilmani hosil qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:**

1. G‘oziev E. Psixologiya. T.: O‘qituvchi, 1999.
2. Anikeeva N.P. Jamoada ruhiy muhit. T.: O‘qituvchi, 1997.
3. Andreeva G.M. Sotsial psixologiya. M.: 2000.
4. Andizova T.M. Boshqaruv muloqoti psixologiyasi. T.: 2000.
5. Internet materiallari